



AKITONUZOL

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar va ularning mevasidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi: Oddiy zardana (Bukok gul) (Xanthium strumarium), Igir (Acorus calamus), Sarimsoq piyoz (Allium sativum), Laminariya-dengiz karami (Laminaria J.V.Lamour), Toshchup (Thymus serpyllum), Dorivor movrak (Salvia officinalis), Grek yong‘og‘i (Júglans régia), Qizilpoycha (Hypericum Perforatum L).

PREPARATNING TA‘SIRI

Akitonozol – qalqonsimon bez kasalliklarini davolash va oldini olishda qo‘llaniladi. Qalqonsimon bezlar to‘g‘ri faoliyat yuritishlari uchun yod mikroelementining ahamiyati juda kattadir. Yod inson tanasida sintezlanmaydi, shu sababdan tanaga yetarli miqdorda yod moddasi faqat chetdan kirib keladi. Tanaga yetarli miqdorda yod kirib turishi, qalqonsimon bezlar bilan bog‘liq turli ko‘rinishdagi hatto, endemik bo‘qoq kasalligini vujudga kelishining oldi olinadi. Preparat organizimga ovqat yoki boshqa yo‘llar bilan kirib keladigan yod tanqisligini ta‘minlaydi.

QO‘LLANILISHI

Qalqonsimon bezlar kasalliklari profilaktikasida, yod moddasiga yuqori talab bo‘lgan organizmlarda yod tanqisligining oldini olishda (homiladorlikda, bola emizish vaktida, o‘spirin va bolalarda);
Qalqonsimon bezda jarrohlik amaliyotidan so‘ng bo‘qoqning qayta takrorlanmasligi va kimyoviy dorilar bilan bo‘qoq kasalligini davolashdan keyingi profilaktikasida;
Yod kamligi oqibatida vujudga keladigan bir qator kasalliklarni davolashda: zaxarli (toksik) bo‘lmagan qorishiq bo‘qoq, qorishikli eutiroid bo‘qoq.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

12 yoshgacha bo‘lgan bolalar	Katta yoshlilar va 12 yoshdan kata bolalarga	Xomilador va emizikli onalar
1 tabletkadan kuniga 1 mahal ertalab, ovqat bilan birga.	2 tabletkadan kuniga 1 mahal ertalab, ovqat bilan birga.	2-3 tabletkadan kuniga 1 mahal ertalab, ovqat bilan birga.

Davolanish kursi davomiyligi, odatda 1 oydan 3 oygacha.

Zarurat tug‘ilganda qayta davolash kursi 1 oylik tanaffusdan so‘ng qayta belgilanadi.

NOJO‘YA TA‘SIRI

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediyentlariga organizm sezuvchanlikligi yuqori bo‘lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtash kerak.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim. Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz